



## HUSAYN BOYQARO VA ALISHER NAVOIYNING DO‘STLIGI

**Muallif:** Farruxbek Olim<sup>1</sup>

**Affiliyatsiya:** O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20229065>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ulug‘ shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hamda uning do‘sti, hamdami Husayn Boyqaro o‘rtasidagi munosabatlar haqida so‘z boradi. Hukmdorning shoir hayoti va ijodida tutgan o‘rni tadqiq qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Navoiy, Husayn Boyqaro, XV asr adabiy muhiti, Navoiy zamondoshlari, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot, tazkira.

Navoiy shaxsiyatining shakllanishini, avvalo, temuriylar davlatchiligining hosili sifatida qarash kerak. Shoirning bolaligi temuriy Abulqosim Bobur homiyligida o‘tdi. Sulton Abusaid davrida shoir bir qator qiyinchiliklarni boshdan kechirdi. Biroq 1469-yili uning do‘sti Husayn Boyqaroning Xurosonni egallashidan so‘ng shoir hayoti bir maromga tushdi, ijodi gullab yashnadi. Albatta, Husayn Boyqaro davrida ham muammolar ko‘p bo‘ldi, ammo Navoiyning o‘zi bu siyosiy vaziyatlarni barqarorlashtirishga, shu davlatning mustahkamligini saqlab qolishga bor kuchi bilan intildi. Ham siyosiy arbob sifatida amaliy ishlari, ham qalamkash sifatida badiiy asarlari bilan insonlar, xususan, davlat arboblarning dunyoqarashlarini o‘zgartirishga harakat qildi.

Husayn Boyqaro hukmronligi davrini ideal deb ayta olmasak ham, har holda, XV asrning ikkinchi yarmida Hirot eng yirik madaniyat markazlaridan biriga aylandi.

Navoiy asarlarida eng ko‘p ta‘riflangan shaxslardan biri, tabiiyki, bu – Husayn Boyqaro. Chunki uning Navoiy ijodi va faoliyatiga ham podshoh, ham do‘st, ham qalam sohibi sifatida ta‘siri juda katta edi. Ikki shaxs munosabatlari doirasini yoritish, bu munosabatlarning asarlarda aks etishini yoritib berishning o‘zi alohida katta bir mavzu.

Sho‘ro mafkurasi davrida ko‘pgina badiiy asarlarda Navoiy va Husayn Boyqaro o‘rtasida go‘yoki sinfiy ziddiyat, ikki shaxs orasida zimdan kuchli adovat bor edi, deb ko‘rsatishga intilishlar bo‘ldi. Albatta, shoh va shoir munosabatlaridagi nozik chegarani rad etolmaymiz. Lekin o‘z zamondosh shoirini ko‘klarga ko‘targan hukmdorlar har doim ham uchrayvermaydi. Garchi, u Navoiydek buyuk daho bo‘lsa ham.

Navoiyshunos Suyima G‘aniyeva o‘zining “Navoiy va Husayn Boyqaro” maqolasida shunday yozadi: *“Husayn Boyqaro Navoiyni behad hurmat qildi, uni qo‘llab-qo‘ltiqldi. Jomiyini u “pirim” dedi, Sayyid Hasan Ardasher va Pahlavon Muhammad kabi erkin fikr sohiblarini e‘zozladi. Zamonasining mashhur olimlari, fozillari, san‘at va adabiyot ahllari undan bahramand bo‘ldilar. O‘z navbatida bunday*

*qaynoq adabiy va madaniy muhitda Husaynning o'z ijodi kamolotga erisha bordi"* [1 :110].

Boyqaro, hatto, ulug' qalam sohibiga bag'ishlab alohida risola ham bitadi. Risola munojot ruhida yozilgan. Unda muallif mamlakat rivoji uchun qilingan ezgu ishlari, bunyodkorliklarini sanaydi, bu yo'lda unga aziz avliyolar ruhi hamroh bo'lganini qayd etadi. Eng muhim jihati, zamondoshlari Jomiy va Navoiy unga "jilvai zuhur" bo'lib turganini, ya'ni Haqning nuri ularda aks etib turganini aytadi. Bu, aslida, ikki avliyosifat shoirlarga juda yuksak baho edi. Bundan tashqari, Husayn Boyqaro o'zi va shunday ulug'lar yashagan zamoni davrlarning eng zo'ri, deb biladi va Jomiyga ta'rif berib ketadi: *"Va bu davron barcha davrlardin mumtozki, bular tag'i mujibi ko'p adoyi shukr tururki, andin notiq tili lol-u qalam tili shikastamaqoldurur. Va ul jumlaning a'lam-u afzali, fazoyil daryosining durri poki va valoyat aflokining xurshedi tobnoki, nazm javohirining sohibi intizomi Hazrati shayxulislom Mavlono Abdurahmon Jomiy, sallama hullohu va abqo tururkim, to falaki qadaminihod savobitu sayyordin yuz ming ko'z bila olam ahlig'a nozirdurur, ko'ziga andoq nodirxayol kelmamish va to mehri jahonnamo, balki xurshedi sipehrpaymo jahon davrig'a soyirdurur, partavi hargiz aningdek adim ul-misol ustiga tushmamish, javohiri nazmidin jahon sadafi to'la durri samin va laoliyi nasridin aflok atlasig'a zeb-u tazyin, tasonifi jami'i ulumda behaddu har tasnifda xazoyini ma'oniy beadam"* [2 : 11].

Shuningdek, muallif Yaratgandan bunday sohibdavlat bardavom turishini so'raydi.

Husayn Boyqaroning yozishicha, Hirotda o'sha davrda mingga yaqin qalam sohibi bo'lgan. Bu esa Navoiy yashagan adabiy muhitning qanchalik boyligini yana bir karra ko'rsatadi. Risolada shunday deyiladi: *"...mingga yaqin kishikim, alarning ishi ma'oniy durlarin nazm silkiga tortmoq bo'lg'ay va diqqat gavharlarig'a vazn libosi zeb-u ziyatin bermak bo'lg'aykim, hech davrda bulardek elning mingidin o'ni-yu hech zamonda yuzidin biri yo'q erkandurur"* [2 : 12].

Shoirlar ta'rifidan keyin muallif Alisher Navoiy haqida so'z boshlaydi. Bolalikdan do'stligi, ko'kaldoshligini aytib, Navoiy *"turk tilining o'lgan jasadig'a Masih anfosi bila ruh kiyurdi"* [2 : 15], ya'ni turkiy tilning o'lib qolgan jismiga Iso Masih kabi nafas bilan jon kiritdi, deb o'xshatish qiladi. Keyin Navoiyning aynan turkiy tilda turli janrlarda ijod qilganini madh etadi. "Xamsa"ni boshqa xamsanavislarga nisbatan juda qisqa muddatda yozib tugatgani, umuman, turkiy adabiyotni ulug' shohsupaga olib chiqqanini faxr bilan qog'ozga tushiradi.

U Navoiyning dunyoda tenggi yo'q qalam sohibi, sohibqiron ekanligini alohida ta'kidlaydi: *"Nazm iqlimida qaysi berk qo'rg'ang'a kuch kelturdikim, eshigi aning yuziga ochilmadi va qaysi azim kishvarg'a tab' cherigi bilan turktoz soldikim, fath qilmadi. Bu kun nazm arkonining rub'i maskunida qahramon ul tururu bu mamolik fathig'a sohibqiron ani desalar bo'lur"* [2 : 15]. O'zi, aslida, Navoiy doim Husayn Boyqaroni sohibqiron, deb ulug'laydi. Ammo podshoh bu yerda o'zini emas, balki buyuk qalam egasini sohibqiron, deb ko'klarga ko'taryapti.

Husayn Boyqaroning o'zi ham yaxshigina turkigo'y shoir edi. Risola ham muallifning bir qancha turkiy she'rlari bilan boyitilgan. Uning devon tuzgani ham ma'lum. U Husayniy taxallusi bilan ijod qilgan.

Tarixdan bilamizki, odatda, hukmdorlar faoliyati, ularning madhiga bag'ishlab turli tarixiy va badiiy asarlar qalam egalari tomonidan yoziladi. Ammo podshohning o'z zamondosh shoiriga bag'ishlab asar yozishi dunyo adabiyotida deyarli uchramaydigan hodisa, desak bo'ladi. Ammo Husayn Boyqaro shu sharaflil vazifani

faxr bilan ado etdi. Bu esa uning ijod olamiga qanchalik yaqin inson ekanligidan, o'z davrining yuksak ma'naviy rahnamosi, homiysi bo'lganligidan dalolat beradi. Uning soyasida Jomiy, Navoiydan tashqari, Lutfiy, Binoiy, Vosifiy, Mirxond, Xondamir, Badriddin Hiloliy, Husayn Voiz Koshifiy, Atoullloh Husayniy, Sultonali Mashhadiy, Abdujamil Kotib, Kamoliddin Behzod, Shayxim Suhayliy, Mirak Naqqosh, Qosim Ali kabi shoir, olim, tarixchi, musiqachi, naqqosh, rassom-u xattotlar qizg'in ijod bilan shug'ullanishdi.

*“Husayn Boyqaro podshohlik qilgan va davlat, san'at, adabiyot, ilm-fan ishlariga Navoiy homiylik qilgan bu zamonning eng muhim yutug'i shundaki, mamlakatda ularning yordamlari bilan ilm, fan, san'at, adabiyot beqiyos rivojlanib, bu sohalarda kishilarning ko'zini qamashtiradigan porloq iste'dod sohiblari yetishdi. Abduqodir Noiy, Husayn Udiy, Shohquli G'ijakiy, Darvesh Ahmad Qonuniy kabi musiqa arboblari, Sulton Ali Mashhadiy, Abdujamil Kotib, Sulton Ali Koiniy, Darvesh Muhammad Toqiy, Abdullo Marvarid kabi xattotlar, Behzod, Mirak Naqqosh, Shoh Muzaffar, Mahmud Muhahhib, Qosim Ali Chehrakusho, Muhammad Naqqosh kabi rassom va naqqoshlar ma'naviyat olamining so'nmas yulduzlari bo'lib tarixdan o'rin oldilar” [3 : 81].*

Navoiy “Xamsa”ning har bir dostonida Husayn Boyqaroga alohida bob bag'ishladi. “Majolis un-nafois” tazkirasining 8-majlisi ham to'laligicha hukmdor ta'rifidan iborat [4 : 173]. Ayniqsa, shoirning Boyqaro taxtga chiqishiga bag'ishlangan “Hiloliya” qasidasi ham mashhur [5 : 477].

*“Alisher Navoiyning deyarli barcha nasriy asarlari ham sulton Husayn Boyqaro nomiga bag'ishlab yozilgan bo'lib, Navoiy ularning yozilishida zamona hukmdorining homiyligi va rag'batini alohida ta'kidlab o'tadi. “Tarixi muluki ajam” asarining xotimasida Husayn Boyqaro saltanati tarixi haqida yozish niyati borligini aytib o'tadi” [6 : 265].*

Suyima G'aniyeva yuqorida nomi zikr etilgan maqolasida XV asrning ikkinchi yarmida Hirotda vujudga kelgan har tomonlama taraqqiyot haqida yozib, o'sha davrdagi olim-u ulamo, shoir-u shuaro va boshqa yetuk kasb egalari nomlarini birma-bir sanab o'tadi: *“Alisher Navoiy boshchiligi, Husayn Boyqaro xayrixohligida Hirotda zo'r madaniy muhit vujudga kelib, unda mashhur tilshunos olim va tarixchilar, xattot va kotiblar, bastakor va xonandalar, rassomlar va naqqoshlar, sozanda va hofizlar, faylasuf va muzikashunoslar, shoir va adiblar ijodiy ish bilan shug'ullandi. Chunonchi tilshunos olimlardan Sayfiddin Ahmad, Shayx Husan; adabiyotshunoslardan – Davlatshoh, Sayfi Buxoriy, Sayfiddin Muhammad Badaxshiy, Kamoliddin Husayn; tibb olimi – Darvesh Ali; tarixchilar – Mirxond va Xondamir; xattotlar – Sulton Ali Mashhadiy, Abdujamil kotib, Sulton Muhammad Xandon, rassom va musavvirlardan Kamoliddin Behzod, Shoh Muzaffar, bastakor va sozandalardan G'ulom Shodiy, Xoja Marvariy, Ustod Qulmuhammad Udiy, Shayx Noyi, Husayn Udiy, Ustod Kuchek Ali Tanburiy, Ustod Ali Xoniy, Hofiz Sulton Mahmud Ayshiy; shoir va adiblardan – Abdurahmon Jomiy, Shayxim Suhayliy, Bobo Sho'rida, Husayn Voiz Koshifiy, Xurramiy, Nargisiy, Kamoliddin Binoiy, Hofizi Sa'd, Osafiy, Sohib Doro, Badriddin Hiloliy va boshqalar” [1 : 110].*

Muhimi shundaki, o'z kasbining nom chiqargan yetuk namoyandalariga Navoiyning bevosita ta'siri bor. U o'z zamondoshlarining iste'dodlari yuzaga chiqishida ham ma'naviy, ham moddiy yordam ko'rsatdi. Ilm va ijod ahlining yo'l boshlovchisi bo'ldi. Eng muhimi, Navoiy o'z zamondoshlariga har tomonlama homiylik qilishni o'zining oliy burchi, deb bildi.

*“O‘zaro nizolar, temuriy shahzodalar o‘rtasidagi shiddatli kurashlar silsilasida toblangan, tajriba orttirgan dovyurak sarkarda, yetuk iste‘dod sohibi Husayn Boyqaro Xurosonda hokimiyatni egallagach, mamlakatda tinchlik, osoyishtalikni qaror toptirish, ichki hududiy nizolar, ziddiyatlarni bartaraf etish va markaziy hokimiyatni mustahkamlashga katta e‘tibor qaratdi. U o‘lkada madaniy-ma‘rifiy va obodonchilik ishlarini rivojlantirishga alohida rag‘bat ko‘rsatdi: iqtisodiy hayot yuksalib, xalq farovonligi oshadi, savdo-sotiq rivojlanadi, yuzlab karvonsaroylar rabot, ko‘prik, maktab, madrasa, masjid, xonaqoh, hammom, tabobatxona, yetimxona, suv havzalari quriladi, kanallar qaziladi, bog‘lar barpo etiladi; nomlarini abadiylashtirish maqsadida shohning boshqa amir-amaldorlari hatto malikalar ham o‘z nomlaridan masjid, madrasa, turli xayriya binolari qurishga kirishib ketadilar”[6 : 264]. Navoiy yashagan davrda barcha sohalar jadal taraqqiy topdi. Suyima G‘aniyevaning ta‘kidlashicha: “Adabiyotga kelganda, bu sohada shunday tarraqqiyot yuz beradiki, uni na avvalgi barcha asrlardagi va keyingi bir necha asrlar mobaynidagi adabiyot bilan taqqoslab bo‘ladi, bu davrda o‘zbek adabiyoti ham, fors-tojik tilidagi adabiyot ham, ayniqsa, Jomiy timsolida va Navoiyning fors-tojik tilidagi asarlari timsolida o‘zining yana bir cho‘qqisiga ko‘tariladi”[1 : 116].*

Aslida, XV asrning ikkinchi yarmida Xurosonda vujudga kelgan bunday muhit Musulmon Sharqidagi ikkinchi Uyg‘onish davrining mevalari edi. Ilm-u amalda har tomonlama yetuklik, komillikka erishish bu davr ziyolilarining oliy maqsadi bo‘lgan. Bu borada Abduqodir Hayitmetov shunday yozadi: *“Ko‘rinadiki, bu davrda kishilar bir kasb, bir hunar yoki ilmning, san‘atning bir sohasi bilan chegaralanib qolmasdan, boshqa sohalarini ham egallashga harakat qilganlar va bunga erishganlar ham. Bu umumiy bir me‘yor darajasida bo‘lgan. Masalan, Binoiy shu davrning ko‘zga ko‘ringan shoir va xattotlaridan bo‘la turib, musiqadan uzoq bo‘lgan. Ammo uning bu kamchiligini ko‘rsatganlarida, bu tanqidni u to‘g‘ri qabul qilib, oz fursatda musiqani o‘rgangan, hatto bu soha bo‘yicha risola ham yozgan”[3 : 8].*

Navoiy yuksak darajaga ko‘tarilgan o‘z zamoni haqida yozmasligi, bunday tarixiy taraqqiyotni qalam sohibi sifatida tarixga muhrlamasligi mumkin emas edi. Shu sababli u o‘zining deyarli barcha asarlarida o‘z zamonasi va shu davr kishilariga bo‘lgan munosabatini bildirib ketdi.

Umuman, Navoiy zamondoshlari ijod va faoliyatini o‘rganish, tadqiq etish ulug‘ daho yashagan ijtimoiy-madaniy muhit haqida tasavvurlarimizni kengaytiradi. Xususan, bu davrda yashagan qalam ahlining faoliyatini o‘rganmay turib, Navoiy asarlari mazmun-mohiyatiga to‘liq tushuna olmaymiz. Bu esa ushbu zamon madaniy muhitini kompleks o‘rganishni taqozo etadi.

Husayn Boyqaro umrining oxirigacha, ya‘ni 38 yil hukmronlik qildi. Garchi, nevarasi Mo‘min Mirzoni o‘limga hukm etishdek xatolarga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa ham, Xuroson mamlakatini rivojlanishiga juda katta hissa qo‘shdi. Aslida, ulug‘ Jomiy va Navoiylarning ijodda yetuk darajaga chiqqanliklarida Hirotdagi tinchlik, osoyishtalik, farovonlikning ahamiyatini rad etib bo‘lmaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Navoiy va adabiy ta‘sir masalalari. – Toshkent: Fan, 1968. – 353 b.
2. Husayn Boyqaro. Risola. – Toshkent: Sharq, 1991. – 24 b.
3. Hayitmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1997. – 240 b.
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. T.13. Majolis un-nafois. – Toshkent: Fan, 1997. – 282 b.

5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. T.5. Xazoyin ul-maoniy: Badoye' ul-Vasat – Toshkent: Fan, 1990. – 544 b.
6. Alisher Navoiy: qomusiy lug'at. 2-jild. – Toshkent: Sharq, 2016. – 480 b.